

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2024



No 6

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 126 sahifa.

E'lon qilishga 2024-yil 25-iyunda ruxsat etildi.

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)

Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Oliy ta'lim islohotlarida – muhandislik maktablarini institutsional rivojlantirish asoslari	16
Qo'ng'iro'tboy Avezimbetovich Sharipov, Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Xufiyona iqtisodiyot mamlakatimiz rivojiga to'siq bo'lmoqda	20
Muxiddin Kalonov	
"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish	24
Muhammadiyeva Maftuna	
Oliy ta'lim tizimidagi islohotlarda innovatsion yechimlarning zarurati	27
Abduqunduzova Nazokat Usmonqulovna	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshirishda ish beruvchilar va yonlanuvchilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni aniq sotsiologik baholash.....	31
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
Перспективы развития средств размещения в экологическом туризме на охраняемых природных территориях Узбекистана	40
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Bank kartalari orqali ko'rsatilayotgan xizmatlari bozorining rivojlanish borasidagi asosiy tendensiyalari va muammolari	49
To'irov Yunus Alamovich	
Kichik biznes subyektlarida innovatsionraqabatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish orqali import o'rnini bosish strategiyasini shakllantirish istiqbollari	55
Rustamov Alisher Raxmataliyevich	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashda innovatsion usullardan foydalanish.....	62
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Tijorat banklarida bank risklarini boshqarishning strategik ahamiyati.....	67
Altibayev Xudayberdi Kuvandikovich	
Klaster iqtisodiy subyekt sifatida: mohiyati va tasnifi.....	71
Usmonov Sharofiddin Pazlitdinovich	
Tijorat banklari tomonidan yoshlar tadbirkorlik faoliyatini kreditlashning nazariy-uslubiy jihatlari.....	76
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
Oliy ta'lim muassasalari xalqaro tasnifi: nazariya va tendensiya.....	81
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
Iqtisodiyot transformatsiyasi sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy resurslarini boshqarishda metodologik yondashuvlar va ilmiy qarashlar	86
Jiyanova Nargiza Esanboyevna	
Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini samarali tashkil etish mezonlari va omillari.....	93
Z. Abdikarimova, S. Madaminov	
Savdo korxonalari boshqaruv samaradorligini oshirish imkoniyatlari.....	97
Q. J. Mirzayev, Sh. M. Islomov	
Sociological Assessment of Migration Processes	102
Gulmurodov Kamoliddin Abdukodir ugli	
Current issues of business management in the context of digitalization of the economy	112
Safarov Bakhtiyor Djurakulovich, Kadirova Zulhumor Namazovna, Dadabaev Kuchkor Abdullaevich	
Методические основы маркетинговых стратегий акционерных обществ.....	118
Эркинов Шахзод Баходир ўғли	



“YASHIL” IQTISODIYOTNI MOLIYALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Muhammadiyeva Maftuna

O'zbekiston Respublikasi Bank-Moliya Akademiyasi,
magistratura tinglovchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyo miqyosida “yashil” iqtisodiyot, “yashil” iqtisodiyotga o'tish, iqtisodiyotni dekorbon-izatsiyalash, kam uglerodli rivojlanish, “yashil” iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyoti tog'risida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: “yashil” iqtisodiyot, yashil o'sish, barqaror rivojlanish, moliyalashtirish instrumentlari, “yashil” moliyalashtirish.

Abstract: This article talks about the global green economy, the transition to a green economy, the decarbonization of the economy, low-carbon development, the practice of financing the green economy.

Key words: green economy, green growth, sustainable development, financing instruments, “green” financing.

Аннотация: В этой статье рассматривается мировая зеленая экономика, переход к зеленой экономике, декорбонизация экономики, низкоуглеродное развитие, практика финансирования зеленой экономики.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленый рост, устойчивое развитие, инструменты финансирования, “зеленое” финансирование.

KIRISH

“Yashil” iqtisodiyot - bu iqtisodiy tizim, uning asosiy maqsadi sayyoramiz ekologiyasi va uni saqlab qolish bilan birga iqtisodiyotning barcha sohalarini rivojlantirishga qaratilgan. Shunday qilib, “yashil” iqtisodiyot deganda, inson hayoti va sog'lig'i uchun zarur bo'lgan resurslarni, atrof-muhit va ekologiyani bir butun holda saqlab qolib ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini bog'liq iqtisodiyotni yanada rivojlantirishni amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy faoliyatning yangi yo'nalishi tushuniladi. ^[1]

“yashil” iqtisodiyot har qanday davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashning muhim vositalaridan biridir. “Yashil” iqtisodiyot deganda aholining turmush darajasi yuqori bo'lgan, tabiiy resurslardan hozirgi va kelajak-avlodlar manfaati yo'lida hamda mamlakatning xalqaro ekologik majburiyatlariga muvofiq ravishda ehtiyotkor va oqilona foydalanish nazarda tutilgan iqtisodiyot tushuniladi. ^[2]

“Hashil” iqtisodiyot barqarorlik tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. O'tgan asrning 80-yillari oxirida uning rivojlanishiga asos solingan. “Yashil” iqtisodiyot g'oyasi paydo bo'lishining mohiyatini yaxshiroq tushunish uchun, 1987-yilda BMT komissiyasi rahbari G. H. Brundland tomonidan taklif qilingan, hozirgi kunda barqarorlikning eng keng tarqalgan ta'rifiga murojaat qilaylik: “yashil” iqtisodiyot – bu “kelajak avlodlarning hayotiy ehtiyojlariga tahdid qilmasdan zamonaviy avlod ehtiyojlarini ta'minlaydigan rivojlanish”. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va atrof-muhit tushunchalarini birlashtirgan uchlik konsepsiyasidir. Yangi iqtisodiy modellarning paydo bo'lishi aynan atrof-muhit tushunchasi bilan bog'liq. Bu modellarning asosiy maqsadi kelgusi avlodlar uchun tabiiy resurslarni saqlab qolish, mavjud ekotizimlarning degradatsiyasini oldini olishdir. Shu munosabat bilan bir vaqtning o'zida bir nechta tushunchalar tarqaldi:

- “yashil” iqtisodiyot (green economy);
- kam uglerodli iqtisodiyot (low-carbon economy);
- bio iqtisodiyot (bioeconomy);
- moviy iqtisodiyot (blue economy);
- aylanma iqtisodiyot (circular economy);
- “yashil” o'sishga asoslangan iqtisodiyot (green growth) ^[3]

“Yashil” iqtisodiyot nazariyasi 3 aksiomaga asoslangan:

- cheklangan muhitda ta'sir doirasini cheksiz kengaytirish mumkin emas;



- cheklangan resurslar sharoitida cheksiz o'sib borayotgan ehtiyojlarni qondirishni talab qilish mumkin emas;
- yer yuzasidagi hamma narsa o'zaro bog'liqdir.

BMTning UNEP dasturi ta'rifiga ko'ra, "yashil" iqtisodiyot – bu "tashqi resurslardan foydalanishni ichki resurslarga almashtirish, ekologik toza va samarali texnologiyalar va barqaror qishloq xo'jaligi iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish va qashshoqlikni kamaytirishning asosiy omillari bo'lib xizmat qiladigan iqtisodiyot". Bu issiqxona gazlari emissiyasi past bo'lgan va iqlim o'zgarishining sekinlashgan yoki barqarorlashgan sur'ati, yuqori texnologiyali past uglerodli yoki ideal holda uglerodsiz iqtisodiyot.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Yashil" iqtisodiyot tushunchasi barqaror rivojlanish g'oyasini o'rnini bosmaydi, aksincha, uni to'ldiradi. Barqarorlikka erishmoq uchun, shu jumladan ekologik barqarorlikka, iqtisodiy ustuvorliklarni to'g'ri tanlash zarur.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tish uchun, ekologik yo'naltirilgan va resurslarni tejaydigan investisiya loyihalarini amalga oshirish bilan bog'liq xarajatlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash barcha iqtisodiy sohalarda katta ahamiyatga ega. Ekologik yo'naltirilgan iqtisodiyotdan "yashil" iqtisodiyotga o'tishni moliyalashtirishining ishonchli manbalari energiya intensivligi jarayonlarini qisqartirishni tezlashtiradi.

Hozirda, atrof-muhit va iqtisodiy rivojlanishni moliyalashtirish uchun byudjet va byudjetdan tashqari manbalari yetarlicha ajratilgan. Ularning har birini o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek afzalliklari va kamchiliklari bor.^[4]

"Yashil" moliyalashtirish instrumentlari:

- "Yashil" kreditlar
- "Yashil" obligasiyalar
- "Yashil" investisiya fondlari
- uglerod birjalari
- aktivlar bilan ta'minlangan qimmatli qog'ozlar
- serdaromad kompaniyalar
- "Yashil" banklar

Jahon iqtisodiyotini rivojlantirish, barqaror iqtisodiy siyosat yuritish jarayonida ko'plab yuzaga keladigan muammolar mamlakatlarda o'xshash yoki ayni shaklda bo'lishini uchratishimiz mumkin.

Xususan, global miqyosda xavf soladigan muammolar aksariyat qismi tabiat hodisalariga bevosita bog'liqdir. Dunyo aholisi sonining ortib borishi natijasida ishlab chiqarishga ehtiyoj ham ortishi kuzatilmoqda. Bu vaziyat iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar taqchilligi, bioxilma-xillikning yo'qolib borishi, ijtimoiy tengsizlikning oshib ketishi, energiya, tabiiy gaz va suvga talab ortishi natijasida muammolarning kengayishiga sabab bo'lmoqda. Ko'plab xorij mamlakatlari va mamlakatimizda ham "yashil" iqtisodiyotga o'tish orqali milliy iqtisodiyotni rivojlantirish borasida chora-tadbirlar amalga oshirilishi shart bo'lib qolmoqda. "yashil" iqtisodiyotni iqtisodiy soha sifatida kiritish orqali ko'plab global uchraydigan muammolarga yechim topish nazarda tutilgan. Bunda energiya tejamkorligini ta'minlash, qayta tiklanadigan energiya manbalari uchun zaruriy texnologiyalarni aniqlash va qo'llash, suvdan oqilona foydalanish va qurg'oqchilik muammolarini hal qilish, mamlakatning barcha hududlarini suv bilan to'liq ta'minlash, qishloq xo'jaligi sohasini yaxshilash natijasida tabiiy yo'l bilan yetishtirilgan ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish orqali aholi yashash sharoitlarini yaxshilab borish asosiy maqsad qilib belgilab olingan.

Mamlakatimizda ham jadallashayotgan sanoatlashtirish va aholi sonining ortishi natijasida resurslarga bo'lgan ehtiyojini sezilarli darajada oshishi kabi muammolar yechimi uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Shuningdek, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasi doirasida "yashil" va inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish hamda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish masalalari belgilab olingan.^[5]

O'zbekistonning "yashil" moliyalashtirish sohasidagi kelajakdagi strategiyalarida turli sohalar subyektlari tomonidan ekologizatsiya faol investisiyalariga to'sqinlik qiladigan to'siqlarni kamaytirishni ta'minlash zarur. Bunday to'siqlar sifatida quyidagilarni belgilash mumkin:

- 1) xom ashyo tarmoqlari va chiqindi darajasi yuqori tarmoqlar ustunligi;
- 2) biznes hamjamiyati va hukumatning korporativ siyosatning atrof-muhitga yo'naltirilgan imtiyoz va imkoniyatlar to'g'risida xabardorligining past darajasi;
- 3) nomunosib tartibga solish, shuningdek, etarli me'yoriy-huquqiy baza va moddiy manfaatlarning yo'qligi.



Yashil moliya bozorlari ko'proq yashil loyihalarni rag'batlantirish uchun yetarli tartibga soluvchi imtiyozlarni talab qiladi.

Biznes ustuvorliklari ko'pincha barqarorlikning ijtimoiy maqsadiga to'g'ri kelmaydi, bu o'z navbatida ijtimoiy chetlanish va ekologik tanazzul muammosini kuchayishiga olib keladi. Barqaror rivojlanish yo'lida ishlashga tayyor kompaniyalar mavjud, ammo ular davlat sektori bilan o'zaro aloqalar uchun samarali aloqa nuqtalariga ega emaslar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada "Yashil" iqtisodiyotga oid nazariy mushohada, tizimli yondashuv, kuzatish, umumlashtirish va tahlil kabi usullar samarali qo'llanildi, shuningdek "yashil" iqtisodiyot sohasida mavjud muammolar, bu borada amalga oshirilishi kerak bo'lgan vazifalari borasida xulosa va takliflar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirish amaliyotini qanday yaxshilashimiz mumkin:

Normativ-huquqiy bazani qayta ko'rib chiqish: ekologiyani asrash bo'yicha moliyaviy tartibga solish amalga kiritilishi kerak. Bunga yashil investitsiyalarning aniq ta'riflarini ishlab chiqish yoki qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun ruxsat berish jarayonlarini optimallashtirish kiradi.

Davlat imtiyozlari "yashil" korxonalar uchun soliq imtiyozlari, subsidiyalar va kredit kafolatlarini taklif qilishda muhim rol o'ynashi mumkin. Qazib olinadigan yoqilg'i subsidiyalaridan bosqichma-bosqich voz kechish orqali mablag'larni barqaror alternativalariga yo'naltirishi mumkin.

Moliyaviy innovatsiyalar: "yashil" loyihalarga xususiy kapitalni jalb qilish uchun yangi moliyaviy mahsulotlar kerak. Bunga ekologik toza loyihalar uchun kapitalni jalb qiladigan "yashil" obligatsiyalarni ishlab chiqish yoki "yashil" investitsiyalar bilan bog'liq xavflarni kamaytiradigan sug'urta sxemalarini yaratish kiradi.

Davlat-xususiy sheriklik: hamkorlik muhim ahamiyatga ega. Davlat mablag'lari "yashil" loyihalar xavfini kamaytirish uchun ishlatilishi mumkin, bu esa ularni xususiy investorlar uchun yanada jozibador qiladi. Bu katta xususiy kapitalni bo'shatishi va "yashil" iqtisodiyotga o'tishni tezlashtirishi mumkin.

Standartlashtirish va shaffoflik: "yashil" moliya uchun umumiy "tahlil" zarur. Ya'ni investitsiyalarning atrof-muhitga ta'sirini baholashning standartlashtirilgan tizimlarini yaratish investorlarga "yashil" loyihalarni yanada samarali taqqoslash imkonini beradi. Bundan tashqari, mablag'lardan foydalanishning shaffofligini oshirish ishonchni kuchaytiradi va qo'shimcha investitsiyalarni jalb qiladi.

Salohiyatni oshirish: "yashil" investitsiyalarni baholash va boshqarish uchun tajriba to'plash juda muhimdir. Bunga moliya institutlari va korxonalarga "yashil" loyihalarni aniqlash va baholashni o'rgatish kiradi.

XULOSA

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuni ta'kidlash joizki, "yashil" iqtisodiyotni moliyalashtirishni yaxshilashda moliyaviy innovatsiyalar, davlat tomonidan taqdim etiladigan imtiyozlar muhim o'ringa ega. Davlat imtiyozlari, subsidiyalar va kredit kafolatlarini taqdim etish "yashil" loyihalarni jozibadorligini yanada oshirishda katta ahamiyatga ega. "Yashil" loyihalarni amalga oshirishda standartlashtirilgan tizimlarni yaratish orqali yashil loyihalarga ajratilgan mablag'lardan foydalanishda shaffoflikni oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximov X. Sh., Usmonov N. E. "Yashil" iqtisodiyotga o'tishning O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishdagi o'rni, 2023. 123-b.
2. Erkinov D. Yu., Kadirov U. R. "Yashil" iqtisodiyot va uning kelajakdagi istiqbollari, 2023 URL: <https://researchedu.org/index.php/openscholar/article/view/3557>
3. Землюлина В. Ю. Зеленая экономика: теоретические аспекты и актуальность // URL: https://elar.urfu.ru/bitstream/10995/116870/1/978-5-91256-557-1_2022_068.pdf
4. O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. (<https://president.uz/oz/lists/view/5805>).
5. file:///C:/Users/Isлом/Downloads/razvitie-ekobiznesa-kak-podhod-k-finansirovaniyu-ekologizatsii-ekonomiki.pdf

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

